

INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH

Xasanova Aziza Ikromovna

Qarshi Davlat Universiteti II-bosqich magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada inson kapitali tushunchasining nazariy talqini va uni rivojlantirishda investitsiyalardan samarali foydalanish yo'llari keltirilgan hamda tegishli takliflar ishlab chiqilgan.

***Kalit so'zlar:** Inson kapitali, investitsiya, investitsion faollik, ish joyi, ta'lim, sog'liqni saqlash.*

ABSTRACT

In this article, the theoretical interpretation of the concept of human capital and the ways of effective use of investments in its development are presented, and relevant proposals are developed.

***Key words:** Human capital, investment, investment activity, workplace, education, health care.*

KIRISH.

Mamlakatlar iqtisodiyotiga zarur investitsiyalarni jalb qilish orqali inson kapitalini rivojlantirish masalasi bugungi kunning dolzarb masalasiga aylanib bormoqda. Iqtisodiyotda investitsiyalardan samarali va oqilona foydalanish orqali inson kapitalini rivojlantirishda investitsion muhit tushunchasiga murojlat qilinad. Ushbu jarayonga investitsion faoliyat ishtirokchilarining qiziqishi tobora ortib borayotgani, mamlakatning investitsiya muhitini baholashning mavjud usulidagi manfaatlarning mutlaqo tabiiy xodisa ekanligidan dalolat beradi. Bugungi kunda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlari hududiy farqlanishi bilan ajralib turadi, shuning uchun mamlakatning investitsion muxiti emas, balki uning hududlari investitsion jozibadorligini baholash hakida gapirish yanada to'g'riroq bo'ladi. Hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish avvalambor kapitalning qo'shimcha oqimiga, mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanishiga yordam beradi.

Inson kapitali tor ma'noda – bu insonning intellekti, sog'lig'i, bilimi, sifatli va unumli mehnati hamda uning turmush sifatidir.

Mazkur termini keng ma'noda iqtisodiy rivojlanishning intensiv ishlab chiqarish omili, jamiyat va oilani rivojlantirish, mehnat resurslarining bilimli qismi, intellektual

va boshqaruv mehnati, yashash va ish joyi muhitidir deb qarasaq mubolag'a bo'lmaydi. Chunki inson kapitali shaxsga ega bo'lgan bilim, ko'nikma va qobiliyatlarning yig'indisigina emas.

Boisi bu to'plangan bilim, malaka va qobiliyat zaxirasi hisoblanadi. Bunday zaxira esa u yoki boshqa bir muhitda inson tomonidan ijtimoiy qayta ishlashga sarflanadi va mehnat unumdorligi hamda ishlab chiqarishning o'sishiga zamin yaratadi. O'z navbati, to'plangan bilim, ko'nikma va qobiliyat zaxirasining maqsadga muvofiq ishlatilishi esa faoliyatning yuqori unumdorligida xodimning ish haqi (daromadi) o'sishiga olib kelib, yangi bilim va ko'nikmalar zaxirasini to'plab kelajakda unumli qo'llashga xizmat qiladi.

Inson kapitali konsepsiyasi XX asrning 50-60 yillarida AQShda Chikago universitetining Amerika ilmiy maktabi tomonidan shakllantirilgan bo'lib, uning asoschilari klassik nazariyachilar G.Bekker va T.Shulst hisoblanadi. T.Shulst o'zining ilmiy izlanishlarida inson kapitalini ishlab chiqarish salohiyati kapitalning boshqa shakllari rentabelligidan ustun bo'lgan aktiv sifatida aniqlagan. Ushbu aktiv inson hayoti davomida investitsiyalar yordamida yaxshilanishi mumkin bo'lgan qimmatli bilim, ko'nikma va malakalarni egallash jarayonida shakllanadi. T.Shulst investitsiyalar shakliga qarab quyidagi kapital turlarini aniqladi¹:

- maktab ta'limi;
- ish joyida o'qitish;
- sog'liqni saqlash;
- iqtisodiyot sohalarida o'sib borayotgan bilimlar zaxirasi.

G.Bekker o'zining ilmiy qarashlarida, inson kapitali orqali insonning bilimlari, ko'nikmalari va motivatsiyasining bir butunligini tushuntirib o'tgan². Shu tariqa, har ikki olim ham inson kapitalini mehnat bozorida sotish mumkin, degan fikrga qo'shilmoqda. Ushbu turdagi kapitalning to'planishi katta miqdordagi xarajatlar bilan murakkab investitsiya jarayoni bilan birga keladi. Boshqa har qanday kapital kabi, u ham shunga o'xshash xususiyatlarga ega:

- uzoq muddat foydalaniladigan ne'mat hisoblanadi;
- joriy xarajatlar bilan bog'liq xususiyati;
- to'liq jismoniy eskirish boshlanguncha foydali xususiyatlarini yo'qotadi.

G.Bekker inson kapitali nazariyasida individual va ijtimoiy tavsifga ega bo'lgan ichki qaytim normasi tushunchasini kiritdi. Birinchisi, investitsiyalarni aniq investorlar nuqtai nazaridan kiritishni tavsiflaydi, ikkinchisi butun jamiyat nuqtai nazaridan

¹ Беккер Г.С. Человеческое поведение: экономический подход. Избранные труды по экономической теории: Пер. с англ./ Сост., науч. ред., послес. Р.И. Капелюшников; предисл. М.И. Левин. - М.: ГУ ВШЭ, 2003. - 672с

² Смирнов В.Т., Сошников И.В., Романчин В.И., Скоблякова И.В Человеческий капитал: содержание и виды, оценка и стимулирование: монография / под ред. д.э.н., профессора В.Т. Смирнова. - М.: Машиностроение-1, Орел: ОрелГТУ, 2005. -513 с.

ularning samaradorligini baholaydi. Shunday ekan, qaytim normasi, o'z navbatida, ta'limning har xil turlari va darajalari o'rtasida, va butun iqtisodiyot ham uning har xil sektorlaridagi ta'lim tizimi o'rtasidagi investitsiyalarni taqsimlash regulyatori sifatida namoyon bo'ladi. T.Shulstning asarlaridagi singari G.Bekkerning asarlarida ham inson kapitaliga kiritilgan investitsiyalar jismoniy kapitalga quyilmalarga nisbatan sezilarli darajada oshishi ta'kidlangan. Amerikalik iqtisodchi L.Turov tadqiqotlarida inson kapitalini unumdorlik nuqtai nazaridan ko'rib chiqdi. Olim inson kapitalini odamlarning tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish qobiliyati sifatida belgilaydi. Bu nafaqat shaxsga yo'naltirilgan alohida ishlab chiqarish sarmoyasi, balki boshqa sarmoyalarning samaradorligiga ham ta'sir qiladi¹. P.Romer ham ushbu yondashuv tarafdori bo'lib, inson kapitalini iqtisodiy samaradorlikni oshirishning asosiy manbai sifatida talqin etadi. U yangi bilimlarning manbai – «inson kapitali» ekanligini ta'kidlaydi. YE.Dolan o'z qarashlarida inson kapitalini ta'lim jarayonida va amaliy tajribalar vositasida o'zlashtirilgan insonning aqliy qobiliyati sifatida e'tirof etadi².

R.Krouford yondashuvi asosida inson kapitali nazariyasi uning o'ziga xos xususiyatlari va jihatlarini aniqlash nuqtai nazaridan kengaytiriladi. Unga quyidagilar tegishlidir: kengayish, o'z-o'zini rivojlantirish, portativlik va uyishganlikda foydalanish. Ularning namoyon bo'lishi inson kapitalining mazmunan transformatsiyalashish imkonini beradi. Inson kapitalini kengaytirish, o'z-o'zini rivojlantirish uning hajmini oshirish, portativlik va birgalikda foydalanish esa uni amalga oshirish doirasini kengaytirishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning: "Maqsad - ilm-fanni tubdan rivojlantirish, yuksak natijadorlikka yo'naltirilgan ixtisosliklar bo'yicha milliy laboratoriyalar tizimini yaratish, ilmiy ishlanmalarni tijratlashtirish, xalqaro reytinglarda mamlakatimiz fani nufuzini ko'tarish, asosiy maqsadimiz – mamlakatimizda inson kapitalini rivojlantirishdir", degan so'zlari inson resurslarini rivojlantirish sohasiga qaratilayotgan yuksak e'tiborning yana bir amaliy ifodasidir.

Ta'lim va sog'liqni saqlash yo'nalishiga mablag' ajratish inson kapitaliga kiritiladigan investitsiyalarning muhim qismi hisoblanadi. Birinchidan, ta'lim qay darajada rivojlangan bo'lsa, milliy iqtisodiyotda shunga mos kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lgan xodimlar faoliyat ko'rsatadi va shunga mos iqtisodiy o'sishga erishiladi. Ta'lim sohasi iqtisodiy o'sishning kafolati bo'lib hisoblanadi. Jahonning yetakchi olimlari tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar har bir qo'shimcha ta'lim yili inson umumiy daromadini o'rtacha 10 foizga oshirishini ko'rsatgan. Albatta, ushbu jarayonda ta'lim sifatiga e'tibor ham muhim omil bo'ladi.

¹ Thurow L. Investment in Human Capital. Belmont, 1970. -104 p.

² Dolan E. D. Lindsay Market: microeconomic model - St.-Petersburg, 1992. - 477 p.

Ikkinchidan, ta'lim bilan bir qatorda sog'liqni saqlashga mablag' ajratish ham muhim hisoblanadi. Bu kasalliklar va o'limning qisqarishiga, inson umrining mehnatga layoqatli qismining uzayishiga, shu bilan bir qatorda, inson kapitalining faoliyat ko'rsatish vaqtini uzayishiga olib keladi.

Mamlakatda aholining intellektual salohiyati yuqori darajaga ko'tarilishi iqtisodiyot real sektorida innovatsion faoliyatni rivojlantirishga zamin yaratadi. Natijada jamiyat a'zolari ehtiyoji qondirilishi doimiy ravishda ta'minlanib boriladi. Inson kapitalini rivojlantirish dunyo bo'yicha yetakchi oliy ta'lim muassasalarini o'z ichiga olgan raqobatbardosh va moslashuvchan ta'lim tizimiga asoslangan.

Butun dunyo bo'ylab barcha oliy ta'lim muassasalarining mehnat jamoalari o'z ta'lim muassasalarining nufuzi, uning global reytingda yuqori o'rni uchun kurashadi.

O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlantirish strategiyasining bosh maqsadi – mamlakatning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligi darajasini va innovatsion jihatdan taraqqiy etganini belgilovchi omil sifatida inson kapitalini rivojlantirishdir.

Ya'ni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-sentyabrdagi PF-5544-son Farmoni bilan tasdiqlangan "2019-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasi"da O'zbekiston Respublikasining 2030-yilga borib Global innovatsion indeks reytingi bo'yicha jahonning 50 ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish asosiy vazifasi turibdi.

Respublikadagi kamida 10 ta oliy ta'lim muassasasini xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1 000 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga, shu jumladan O'zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini birinchi 500 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga kiritish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish, bunda mazkur oliy ta'lim muassasalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish vazifalari belgilangan.

Dunyo tajribasi va amaliyoti shuni ko'rsatmoqdaki, aynan inson kapitaliga investitsiya yo'naltirishni ustuvor vazifa sifatida tanlagan mamlakatlar yuksak taraqqiyotga erishmoqda. Chunonchi, rivojlangan mamlakatlarda ta'limning to'liq sikliga investitsiya kiritishga, ya'ni, bola 3 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan davrda uning tarbiyasiga sarmoya sarflashga katta e'tibor beriladi.

Agar yuqoridagi ma'lumotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, AQSH va Janubiy Koreyada bir ishchi kuchini shakllantirishga ketgan xarajat o'zini 13-17 karra oqlagani holda, O'zbekistonda sarflangan sarmoyaning jamiyatga keltiradigan foydasi atigi 4 barobarni tashkil etadi.

2018-yilda Jahon Banki tomonidan e'lon qilingan "Inson kapitali indeksi-2018" reytingida Singapur (0,88 koeffitsent), Yaponiya (0,84), Koreya (0,84), Gongkong (0,82) va Finlyandiya (0,81) peshqadamlik qilgan. Ushbu davlatlarning intellektual salohiyati ham juda yuqori.

Agar xorijiy to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etgan mamlakatlarning 2019-yilgi reytingiga qaraydigan bo'lsak, bugungi kunda xorijiy investitsiyalar arzon ishchi kuchi bo'lgan mamlakatlarga emas, balki intellektual salohiyati hamda inson kapitali yuqori salohiyatga ega bo'lgan mamlakatlarga kiritilayotganligiga guvoh bo'lamiz.

Afsuski, mamlakatimizda maktab o'quvchilarini bilimni aniqlash uchun o'tkazilgan monitoring ishlari xalqaro standartlarga mos ravishda emasligi sababli ta'lim sifati (o'quvchilarning bilimni baholash) bo'yicha taqdim etilgan ma'lumotlar qabul qilinmagan va shu tufayli 2020-yilga qadar Inson kapitali indeksi" reytingida O'zbekiston Respublikasining ma'lumotlari e'lon qilinmagan.

Mamlakatimizda innovatsion rivojlanishga to'sqinlik qilayotgan asosiy muammolarni bartaraf etish bo'yicha amalga oshirilgan samarali islohotlar o'z natijasini berib, 2020-yil uchun inson kapitali indeksiga O'zbekistondagi sog'liqni saqlash va ta'lim sohasiga oid ma'lumotlar ham kiritildi. Ushbu tadqiqotlarda ilk marotaba ishtirok etgan O'zbekiston 0,62 koeffitsent bilan MDH mamlakatlari ichida Belarus Respublikasi (0,7), Rossiya (0,68) va Qozog'iston (0,63) dan keyingi o'ringa joylashgan.

Darhaqiqat, keyingi yillarda O'zbekistonda inson kapitalini rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash va xalqqa munosib turmush tarzini yaratib berishga kun tartibidagi asosiy masala sifatida qaralmoqda.

Soha mutaxassislarining fikriga ko'ra, ilk bolalikda investitsiya kiritish boshqa dasturlarga qaraganda eng samaralidir. Chunki inson kapitalining rivojlanish jarayonining boshlanishi 3-4 yoshga to'g'ri keladi va ushbu nuqtadan boshlab bola kelajakda o'z taqdirini o'zi belgilash va o'zini namoyon qilish qobiliyatiga ega bo'la boshlaydi, mehnat bozorida o'z qobiliyatiga murojaat qilishga o'rganadi. Shu sababdan, yurtimizda maktabgacha ta'lim sohasida alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, 2020-2021-yillarda nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish uchun 1 412 ta davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimlar imzolanib, ulardan 1 097 tasi bo'yicha imtiyozli kreditlar ajratildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-sentyabrdagi PF-5544-son "2019-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasi" farmoni.

2. Беккер Г.С. Человеческое поведение: экономический подход. Избранные труды по экономической теории: Пер. с англ./ Сост., науч. ред., послес. Р.И. Капелюшников; предисл. М.И. Левин. - М.: ГУ ВШЭ, 2003. - 672с

3. Смирнов В.Т., Сошников И.В., Романчин В.И., Скоблякова И.В. Человеческий капитал: содержание и виды, оценка и стимулирование: монография / под ред. д.э.н., профессора В.Т. Смирнова. - М.: Машиностроение-1, Орел: ОрелГТУ, 2005. -513 с.

4. Thurow L. Investment in Human Capital. Belmont, 1970. -104 p.

5. Romer P. Endogenous Technological Change // Journal of Political Economy. - 1990, Vol. 98(5). -Pp. 71–102.¹

6. Dolan E. D. Lindsay Market: microeconomic model - St.-Petersburg, 1992. - 477 p.

7. Исматуллаев, Ж. (2022). АНАЛИЗ ТЕРРИТОРИАЛЬНОЙ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ. *Экономика и образование*, 23(4), 387–392. извлечено от <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/611>

8. Исматуллаев J. (2021). АНАЛИЗ СОВРЕМЕННЫХ СТЕПЕНИ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ РЕГИОНОВ И ИХ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ. *Экономика и образование*, (4), 355–358. извлечено от <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/186>

9. Ismatullaev, J. A. (2022). METHODS OF ASSESSING THE INVESTMENT ATTRACTIVENESS OF THE REGION. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(9), 526-532.